



2019 yilning yanvar – iyun oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -

7 494,4 mlrd.so'm

O'tgan yilning mos davriga

nisbatan -

129,7 %

Nodavlat mulkchiligidagi

tashkilotlar -

7 085,9 mlrd.so'm

Davlat mulkchiligidagi

tashkilotlar –

408,5 mlrd.so'm

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida jami 7 494,4 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,7% ni tashkil etdi.

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 771,8 mlrd so'mni tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 46,6 %ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan 2,6% ga ko'paygan.

Yirik pudrat tashkilotlari

•hajmi –
1771,8 mlrd.so'm

•o'sish surati -
146,6 %

•ulushi -




Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

•hajmi –
4629,7 mlrd.so'm

•o'sish surati -
125,2 %

•ulushi -




Norasmiy sektor

•hajmi –
1092,9 mlrd.so'm


•o'sish surati -
125,0 %

•ulushi -





Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa turdagi tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 61,8 %i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,2 % ga o'sgan holda 4629,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan o'zgarishsiz bo'lib, 14,6 % ni tashkil etdi va 1092,9 mlrd so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajmi bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 125,0 % ni tashkil etgani kuzatildi.




Shuni ta'kidlash lozimki, joriy davrda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshotlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 74,1% yoki 5555,4 mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy soha ob'ektlarini yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan jami qurilish ishlarining 92,4 %i yoki 1 638,0 mlrd. so'm yangi qurilish ishlari bo'yicha bajarilgan.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan jami qurilish ishlarining 65,4 %i yoki 3 025,6 mlrd. so'm yangi qurilish ishlari bo'yicha bajarilgan.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 81,6%i yoki 891,8 mlrd. so'm yangi qurilish ishlariga to'g'ri keldi.



Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 62,4 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,1 % punktga ko'paydi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 17,2 %ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 19,5 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0 % punktga kamaydi.

Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo`yicha tarkibi



- *Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari*
- *Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari*
- *Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari*

Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 16,5 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga ko`paydi.

Mos ravishda, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 60,1 % (0,2 % punktga ko`pyish) va norasmiy sektorning ulushi 23,4 %ni (0,8 % punktga kamayish) tashkil etdi.



Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

- Yirik pudrat tashkilotlari - 16,5 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 60,1 %
- Norasmiy sektor - 23,4 %

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

- Yirik pudrat tashkilotlari - 63,7 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 36,3 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


- Yirik pudrat tashkilotlari - 9,3 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 90,7 %

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 63,7 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,5 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 36,3 % (9,5 % punktga kamayish) ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2% punktga kamaydi va 9,3 %ni tashkil etdi.

Qolgan 90,7 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga ko'paydi.


Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan %da)



Davlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar tomonidan 408,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,5 foizni tashkil qildi, ya'ni 2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan 2,4 % punktga ko'paydi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 7 085,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 94,5 foizni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)




Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Bektemir (tumandagi qurilish hajmining 63,7 %ini tashkil etgan) va Mirobod (mos ravishda, 41,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.






Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Uchtepa tumanida kuzatildi - 1,1%. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi – tumandagi jami qurilish ishlarining 98,1 %i.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)



- Bektemir
- Mirzo Ulug'bek
- Mirobod
- Olmazor
- Sergeli
- Uchtepa
- Chilonzor
- Shayxontoxur
- Yunusobod
- Yakkasaroy
- Yashnobod

Tumanlar kesimida qurilish ishlari



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish sur`ati Yunusobod tumanida kuzatilgan bo`lib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`shish sur`ati 132,0 %ni tashkil etdi.

Toshkent shahrining yuqori o`shish sur'atga – 129,7 % ko`rsatkichga:

- “Yunusobod” va “Sergeli” metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi;
- Ko`ksaroy majmuasining qurilishi;
- Xalqaro Islom markazi binosining qurilishi;
- Toshkent shahridagi “Navruz” istirohat bog`ining qurilishi;

- Toshkent-Sharqiy aerodromi bazasida zamonaviy fuqaro aviatsiya aeroport majmuasi qurilishi kabi bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo`limi**

Nashr uchun mas'ul:

B. Shoimqulov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-88-18